



PEDAGOGIK TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Karimova Nozik Jo'rayevna

Alfraganus universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://karimovanizik7gmail.com>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi pedagogik ta'limda sun'iy intellekt asosida o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi, pedagogik jarayonlarni individuallashtirish, ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ilmiy-pedagogik hodisa yoritilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayoniga kirib kelishi natijasida o'qitish faqat bilim berish yoki axborot uzatish jarayoni sifatida emas, balki ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari, bilish faolligi, o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va kognitiv imkoniyatlariga moslashtirilgan dinamik pedagogik tizim sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, metod, kompetensiya, shaxs, yo'naltirish, faoliyat, raqamli-didaktik, integrativ va sinergetik yondashuvlar, maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl, nazorat va natija.

Sun'iy intellektning pedagogik ta'limdagi ilmiy-nazariy mohiyati uning o'quv jarayonida inson intellektiga xos ayrim funksiyalarni — tahlil qilish, prognozlash, tavsiya berish, implementatsiyalash, nazorat qilish va baholash kabi jarayonlarni algoritmik asosda bajarish imkoniyatlari bilan belgilanadi[1;]. Bunda sun'iy intellekt o'qituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi, o'quvchi yoki talabning individual ehtiyojlarini aniqlashga yordam beruvchi, ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan va moslashuvchan tarzda tashkil etishga xizmat qiluvchi didaktik-texnologik tizim sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, pedagogik ta'limda ushbu texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini, raqamli



savodxonligini, innovatsion fikrlashini va metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik ta'limda sun'iy intellekt asosida o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi, pedagogik jarayonlarni individuallashtirish, ta'lim sifatini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ilmiy-pedagogik hodisadir. Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayoniga kirib kelishi natijasida o'qitish faqat bilim berish yoki axborot uzatish jarayoni sifatida emas, balki ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari, bilish faolligi, o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va kognitiv imkoniyatlariga moslashtirilgan dinamik pedagogik tizim sifatida talqin etila boshladi[3;]. Shu jihatdan pedagogik ta'limda sun'iy intellekt asosida o'qitishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari, baholash mexanizmlari hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi didaktik munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishini taqozo etadi.

Sun'iy intellekt asosida o'qitishning nazariy mohiyati, avvalo, inson tafakkuriga xos bo'lgan ayrim intellektual faoliyat turlarini — tahlil qilish, taqqoslash, bashoratlash, qaror qabul qilish, tavsiya berish, moslashtirish, nazorat qilish va baholash kabi jarayonlarni algoritmik tizimlar orqali amalga oshirish imkoniyati bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt o'qituvchini to'liq almashtiruvchi mexanizm emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, o'quv jarayonini samarali loyihalashga yordam beruvchi, ta'lim oluvchilarning rivojlanish dinamikasini tahlil qiluvchi va individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantiruvchi intellektual didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi[4;].

Demak, pedagogik ta'limda sun'iy intellektning asosiy vazifasi o'qitish jarayonini texnologik jihatdan avtomatlashtirish bilangina cheklanmay, balki pedagogik qarorlarning ilmiy asoslangan, diagnostik, moslashuvchan va natijador bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.





Sun'iy intellektning ta'limga jadal kirib kelishi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ham bir qator o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Pedagogik ta'limda sun'iy intellektga asoslangan o'qitishning izchil nazariy va ilmiy asosi quyidagi jadval asosida asoslanadi:

1.1-jadval

№	Yo'nalish (komponent)	Mazmuni	Pedagogik ahamiyati
1	Sun'iy intellekt tushunchasini aniqlashtirish	Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning mohiyati, funksiyalari hamda o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va imkoniyatlarini aniqlash	O'qituvchilarda sun'iy intellektga nisbatan ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi va undan ongli foydalanish kompetensiyasini rivojlantiradi
2	Bilim asoslarini belgilash	O'qituvchilarning sun'iy intellekt asosidagi ta'limni loyihalashtirish va amaliyotga joriy etish uchun zarur bo'lgan nazariy, metodik va texnologik bilimlarini aniqlash	Pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshiradi hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi
3	Pedagogik asoslarni shakllantirish	O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim natijalariga erishishda sun'iy intellektidan foydalanishga asoslangan didaktik va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish	Ta'lim samaradorligini oshiradi, individual yondashuvni ta'minlaydi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi





4	Axloqiy va ijtimoiy jihatlarni ko'rib chiqish	Sun'iy intellektdan foydalanishda adolat, xavfsizlik, shaffoflik, ijtimoiy mas'uliyat va tashkiliy omillarni hisobga olish	Ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyillarini ta'minlaydi hamda barqaror va inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantiradi
---	---	---	--

Ta'limda sun'iy intellekt, sun'iy intellekt savodxonligi, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha adabiyotlar doimiy ravishda sun'iy intellekt vositalarini neytral qo'shimchalar sifatida emas, balki pedagogik kontent bilimlari va sinf dizaynida joylashtiradigan yaxlit, nazariyaga asoslangan yondashuvni ko'rsatadi[5;].

Pedagogik ta'limda sun'iy intellekt asosida o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari uni faqat texnologik innovatsiya sifatida emas, balki ta'lim jarayonining mazmuniiy, metodik, tashkiliy, diagnostik va aksiologik jihatlarini qayta tashkil etuvchi murakkab pedagogik tizim sifatida tushunishni talab etadi. Mazkur tizim samarali ishlashi uchun sun'iy intellekt texnologiyalari milliy ta'lim maqsadlari, pedagogik qadriyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, raqamli didaktika va etik me'yorlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Ana shundagina sun'iy intellekt pedagogik ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va milliy ta'lim modelini modernizatsiya qilishning samarali ilmiy-amaliy vositasiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bekmurodov M.B., A.Begmatov Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati.-T.,2003.
2. Bektayeva X. Pedagogika va ta'lim metodikasi. T.: 2009. 180 b.





3. Matiboyev T.B. Patriotism and high spiritual education - a factor of the foundation of the third renaissance//. November 2023. Scientific journal of the Fergana State University 29(3)

4. Nurtazina B. A. Interaktiv ta'lim texnologiyalarining ilmiy faoliyatga ta'siri. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. (2016).

5. Raxmatova F.A. Усовершенствование подходов к формированию исследовательских навыков у будущих педагогов. // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2024, 12-son. 175-183 b. <https://npuu.uz/storage/uploads/>